

Tadbirkor muvaffaqiyatga erishishning muhim omillari haqida gapirdi



Uchrashuvda Gennadiy Kravchenya tadbirkorlik faoliyati, erishgan yutuqlari, muvaffaqiyatlarining muhim omillari haqida ishtirokchilarga gapirib berdi. Yoshlar hamda aholi vakillarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob qaytardi.

- Har qanday ishda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillari izlanish, sa'y-harakat, mashaqqatli mehnat, eng asosiysi, omilkorlik bilan ish yuritishda, - deydi tadbirkor G.Kravchenya.

Mazkur uchrashuv tadbirkorlikni endi boshlagan, tadbirkorlikka qiziqqan yoshlarning tadbirkorlik borasidagi bilim va tushunchalarini boyitishga, biznesga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qildi.